# Amerikalik olimlar penopolistirol o‘rniga yangi biopolimerdan foydalanishni taklif qilishmoqda

// 25.10.2024
https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/amerikalik-olimlar-penopolistirol-o-rniga-yangi-biopolimerda

Vuds-Xoul Okeanografiya instituti tadqiqotchilari sellyuloza diatsetatining (CDA) modifikatsiya qilingan versiyasi asosida yangi turdagi bioplastikni ishlab chiqishdi. Ularning fikricha, bu material dengiz suvida shu kungacha ma’lum bo‘lgan boshqa plastiklarga qaraganda tezroq parchalanadi.

Yangi plastmassaga o‘xshash polimer yog‘och massasidan olinmoqda. Olimlar CDA tuzilishiga kichik poralarni qo‘shish uni oddiy penoplastga o‘xshashiga olib kelishini aniqlashdi, biroq bu biopolimerning parchalanish tezligini oshiradi. Sinovlar shuni ko‘rsatdiki, 36 hafta ichida o‘zining massasini o‘zgarmagan holda saqlab qolgan an’anaviy penoplastlardan farqli o‘laroq ko‘pikli CDA asl massasining 65-70% ni yo‘qotgan.

Tadqiqot mualliflarining ta’kidlashicha, ular fundamental bilimlarini iste’molchilar ehtiyojlarini qondiruvchi va okeanda biologik parchalanuvchi yangi materialni yaratishga tadbiq etishgan. Mualliflarga ko‘ra, ishlanma barchaga ma’lum bo‘lgan har qanday plastikka qaraganda tezroq, hatto qog‘ozdan ham tezroq parchalanadi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, Eastman kompaniyasi allaqachon oziq-ovqat sanoatida plastik o‘rnini bosuvchi yangi materialdan ro‘zg‘or idishlarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ygan.

**“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati**